

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarib boshlagan

2006-yil 7 - 13 - avgust N:32 (66573)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA

SHUNDAY MASKAN BOR



2-BETDA

KICHIK MALIKA BILAN KATTA SUHBAT



3-BETDA

YOZILMAGAN KITOB



7-BETDA

Dam olish kunlarining birida o'g'lim bilan Toshkent viloyati, Qibray tumanida joylashgan «Botanika» sihatgohiga borgandik. U yo'l bo'yidagi M. Ulug'bek byustini ko'rib: «Bu qanday joy, ayajon?» deb so'radi.

Men esa bamaylixtir: «Mirzo Ulug'bek shaharchasi», deb javob berdim. U esa kattagina alvon gullar bilan o'ralgan aylanani ko'rsatib: «Bu yer-chi?» dedi. -Ha, bumi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Yadro-fizika instituti, - dedim. -Axir ayajon, yadro - qurol-ku?!... Institut nima uchun qurilgan?

O'g'limning bolalik qiziqishlari meni keyinroq shu institut tomon yetakladi. Institut direktor o'rinbosari, Shermahmat. Mahkamovdan institut haqidagi qiziqishlarimni so'radi:

- Yadro-fizikasi - fizikaning atom yadrosi

tuzilishini va ularning xossalari, radioaktiv yemirilish va yadro reaksiyalari mexanizmini o'rganuvchi fanning dolzarb yo'nalishlaridan biridir, - dedilar lo'nda qilib.

-Bu yerda yadro-fizikasi, qattiq jismlar radiatsiyaviy fizikasi, materialshunoslik, aktivatsion tahlil, radio-kimyoy, ilmiy asbobsozlik, informatsiya texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boriladi. Akademik I.V.Kurchatov, U.O.Oripov va S.A.Azimovlarning nomlarini butun dunyo taniydi. Ular tashabbusi bilan 1956-yili tashkil etilgan

yadroviy qurilmalar orqali dargohimizda ekologiyamizning tozaligini tekshiruvchi, suv va havo havzalarining holatini, darajasini ko'rsatuvchi uskunalarni modellashtiruvchi bo'lim ham bor.

Bundan tashqari, informatsion-telekommunikatsiyalar tizimlari va dasturlari ham yaratiladi. Fundamental tadqiqotlardan olingan natijalar tibbiyotda, neftni qayta ishlash, tog'-kon metallurgiya korxonalarida, va qishloq xo'jaligida ekologiya, farmasevtika, zargarlik, elektrotexnika, materialshunoslik yo'nalishlari bo'yicha ishlayotgan muassasalar va tashkilotlarda qo'llaniladi. Institutimiz olimlarining mehnati Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Va amaliy ishlari nufuzli xorijiy ilmiy markazlarda tan olingan.

Endi atom nima degan o'g'lingizga atom reaktori haqida kamgina tushuncha beray:

- Yadro reaktori, (atom qozoni) atom yadrosining boshqariladigan zanjir reaksiyasini amalga oshirish uchun mo'ljallangan qurilma. Atom reaktori sanoat energiyasi ishlab chiqarishida, fizik tadqiqotlarda yadroviy zarrachalar-neytronlar ishlatiladigan neytronlar oqimini hosil qilish, neytronlar ta'sirida sun'iy radioaktiv izotoplar olish hamda atom elektrostansiyalarida yadroviy reaksiyalar natijasida ajralayotgan issiqlikni energiyasi olishda ishlatiladi. Eng asosiysi esingizdan chiqmasin, atom elektrstansiyalarida chiqariladigan elektroenergiya eng arzon elektroenergiya deb hisoblanadi.

Bugungi kunda atom reaktorida ishlab chiqarilayotgan radioaktiv izotoplar

tibbiyotda tashhis qo'yishda va davolashda keng ishlatilmoqda. Ushbu izotoplar jigar, buyrak va yurak xastaliklarini aniqlab beradi. Hozirda institutimizda 60dan oshiq radioizotop turlari ishlab chiqarilib, respublikamizga va xorijiy mamlakatlarga yetkazib berilmoqda.

Radioaktiv izotoplar xalq xo'jaligini boshqa sohalarida ham keng ishlatiladi. Masalan, neftni qayta ishlash, metallurgiya, tog'-kon sanoatida, texnologik

jarayonlarni nazorat qilishda, qishloq xo'jaligi, farmasevtika va tibbiyot mahsulotlarini zararsizlantirishda qo'llaniladi.

Bolalar orasida Beruniy bobomiz, Nyuton va Kopperniklar kabi buyuk fiziklarga o'xshashni istovchilar ko'p. Qolaversa, ona tabiatimizning kelajagi ma'lum ma'noda FIZIKANING qo'lidadir. Bu yil dargohimiz tashkil topganiga 50 yil to'ladi. Men fan yo'lida zahmat chekayotgan aziz olimlarimizni bu qutlug'sana bilan siz bolalar nomidan tabrikladim, Shermahmat aka Mahkamov bergan suratlarni e'tiboringizga havola qilmoqdaman. Ko'ring, o'rganing, yurtimizning kerakli va ardoqli insonlari safiga qo'shiling, sekingina o'g'limdan «fizikani endi faqat beshga o'qiyman», degan va'dasini oldim.

Ma'mura MADRAHIMOVA.



FAQQAT «5»

ZIYNATILLOGA OQ YO'LI



G'uncha ochilib gulga aylanishini kuzatish naqadar zavqli. Jajji bolakaylarning oq qog'ozga to'kilgan haroratli satrlarini o'qimoq ham shunday maroqli. Hayotni bolalarcha kuzatish, bolalarcha mulohaza, samimiy satrlar. O'n yoshida shunchalar hayrat... Qonida bor-da, deyishadi. Bu haq gap. Ziynatillo ham kelajakda tog'asi O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzodek zabardast so'z zargari bo'lsa, ne ajab. Shoir bola, parvozing she'riyat osmonida tog'dek yuksalaversin.

Vali AHMADJON,
Bag'dod tuman «Yosh qalamkashlar»
to'garagi rahbari.

OQ BULUT

Oq bulut, oppoq bulut,
Senga kelar havasim.
Senga yetolmas burgut,
Soldim men senga razm.

Nazarimda go'yo sen,
Sho'x soy bo'lib toshasan.
Gohida toycha bo'lib,
Tog'-u toshdan oshasan.

Aslida quyosh uchun,
Solingan to'shaksan, par.
Quyosh bobom charchagach,
Senga yotib olar dam.

TUSH

Osmonlarda uchdim men,
Yulduzlarni quchdim men.
Bir yulduzni minvolib,
Oyga tomon uchdim men.

Yetib bordim men unga,
Oymomo qaymoq ekan.
Yeb ko'ray desam uni,
Judayam qaynoq ekan.

Cho'chib uyg'onib ketdim,
Men yiqildim yonboshlab.
«Essiz, tushim ekan» deb,
O'tiribman bosh qashlab.

Ziynatillo UMAROV,
19-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi.



SHUNDAY MASKAN BOR

Yo'lingiz tushib, «Zafar Diyor» nomidagi bolalar istirohat bog'ining ro'parasiga yursangiz, to'rt qavatli bir ko'rkam binoga

ko'zingiz tushadi. Darvozadan kirib chiqayotgan o'quvchi-yoshlarni ko'rib, bu biror ta'lim maskani ekanligini darhol fahmlaysiz.

Darhaqiqat, bu Qibray moliya-iqtisodiyot kollejidir. Yoshlarda kasb-hunar egallashga mas'uliyat tuyg'ularini uyg'otish va takomillashtirish, talabalarni shaxs sifatida shakllantirish kabi ezgu maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan ushbu bilim dargohida ayni kunlarda yangi o'quv yili uchun o'quvchilar qabul qilish ishlari qizg'in davom etyapti. Buxgalteriya, moliya, bank ishi, huquqshunos, tikuvchi dizayner, savdo ishlari, umumiy ovqatlanish va informatika, EVM kabi bo'limlarga hujjat topshiruvchilarning tirbandligidan kollejda o'qish ishtiyoqidagi yoshlarning ko'pligini anglash mushkul emas. Ularning aksariyati bu bilim maskanidagi shart-sharoitlar, imkoniyatlar, imtiyozlar haqida kollejning sobiq o'quvchilaridan eshitib kelgan bo'lsalar, ajabmas.

2005-2006 - o'quv yilida bu yerda tahsil olgan 115 nafar o'quvchidan 13 nafari imtiyozli diplomni qo'lga


kiritishdi. Uzoqdan kelib yashaydiganlar uchun 100 o'rinli shinam yotoqxona, sport hamda faollar zali, o'quv ustaxonasi, kattagina ozoda va sarishta oshxona bolalar ixtiyorida. Ikkita kompyuter sinfi, 2ta fizika va kimyo laboratoriyalari, zamon talablari darajasida jihozlangan. 5ta lingafon xonalari o'quvchilarning puxta bilim olishlari uchun shay.

Bu maskanda 35 yildan beri iqtisod fanidan saboq berib kelayotgan Malika opa Usmonova, shuningdek, 25 yildan buyon mehnat qilayotgan Ahmadjon Jo'raqulovlarni ko'pchilik o'zining ustozlari deb biladi. O'quvchilar Zulfizir Yusupova, Muyassar Nurmatova, Lola Rahmonova, Bahodir To'rayevlar singari mehdariyo ustozlar qo'lida ta'lim-tarbiya topishadi. Darvoqe, kollej direktori vazifasini bajarib kelayotgan O'rol

aka Xudoyberdiyev ham Malika opa va Ahmadjon akaning eng iqtidorli shogirdlaridan biri.

Bu maskanda o'quvchilar bilim olibgina qolmay, hunar o'rganib, tadbir va kechalar uyushtirib, bo'sh vaqtlarini foydali, sermazmun o'tkazib kelishyapti. «Iste'molchi huquqlarini himoya qilish», «Balli qizlar!», «Kollej go'zali» kabi

ko'rik-tanlovlar, «Giyohvandlikning salbiy oqibatlarini», «Hayotingni o'zing asra!», «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!» kabi tadbirlar, «Barhayot an'analar» folklor festivali, «Guliston» mahalla oqsoqoli S.Norimov hamda mahalla imomi Erdon Esonovlar



ishtirokidagi davra suhbatlari fikrimizga dalil bo'la oladi.

Kollejga kiraverishdagi gulzor-u hosilini ko'tarolmay shoxlari egilgan mevazor bog'ini talabalar o'z qo'llari bilan yaratishgan desak, ishonavering. Chunki bu maskanda tahsil olayotgan o'quvchilar bilim olibgina qolmay, mehnat ko'nikmalarini ham

egallab borishadi-da. Erta bahorda shanbaliklar uyushtirib, 2000 tup daraxtni oqladilar, atrofini chiqindilardan tozaladilar. Ular o'tqazgan 1000 tup terak hozir ko'kka bo'y cho'zib, 500 tup atirgul chamandek yashnab turibdi.

Kollejda sportsevar o'quvchilar ko'pligini «Ommaviy sport musobaqalari»ning stol tennisi, voleybol, basketbol, futbol, shaxmat-shashka, kurash kabi turlari bo'yicha o'tkazilgan bellashuvlarda 22 ta guruh talabalarining aksariyati ishtirok etishganidan ham bilsa bo'ladi. Sportchi qizlar spartakiadasida esa 153 nafar qizlarimiz muvaffaqiyatli qatnashishdi. Kollejda o'tkazilgan «Alpomish va Barchinoy» maxsus test-sinovlarida qatnashgan 490 nafar o'quvchidan 65 nafari 1-darajali ko'krak nishoniga loyiq deb topildilar.

Yaqinda bir tanishim: «Qizim 9-sinfni tamomladi. Maktabi 9 yillik. O'qishini qayerda davom ettirsak ekan-a, deb boshimiz qotib turibdi-da», deb qoldi. Men unga: «Hech ikkilanmay, Qibray moliya-iqtisodiyot kollejiga o'qishga bering», degan bo'lardim. Chunki bu dargohdagi mehdariyo ustozlar qo'lida tahsil olayotgan o'g'il-qizlarning bilimdon-u zukko, o'z kasbining mohir ustasi bo'lib kamol topishlariga aminman.

Feruza JALILOVA,
Nodira MIRZAYEVA.

RASMLARDA HAYOT FAROVON

Tengdoshingiz Yulduz Tursunova Poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 290-maktabning 6- «V» sinfida «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'qiydi. Rasm chizish esa uning jon-u dili. Sahifamizni tengdoshingiz chizgan suratlar bilan bezatdik.



BUVIJONIMIZGA SOVG'A

Biz go'zal Toshkent shahrida yashaymiz. Bizning sevimli buvijonimiz esa Buxoroda.

U kishi besh o'g'il va ikki qizni yetkazib, hozirda qarilik abiralar ardog'ida buvijonimiz mehmonga shahar aylanamiz. istirohat hordiq chiqarajonimiz bizga ertaklar, tez o'rgatadilar. Biz roga buvimiz-tez borib turalib bilan tabarruk ziyorat qilishni yoqtiramiz.

Muhayyo yozda 65 yoshni O'tgan yili yulduzi» yillik obunasini qilgan edilar.

navbatida buvijonimizni tug'ilgan kunlariga o'qishdagi a'lo baholarimiz va «Faxriy yorliq»larimizni sovg'a qilmoqchimiz.

Buvijon, biz sizni hamisha sog'-salomat, xursand bo'lib yurishingizni istaymiz. Baxtimizga doim omon bo'ling. Biz sizni juda-juda yaxshi ko'ramiz.

Shohruh va Feruz NE'MATOVLAR.



Tabrik

Islamlari Muhayyo aya. tarbiyalab voyaga gashtini surib, nabira-

yashayaptilar. Har ta'til paytida biznikiga keladilar. Birga

Muzey, teatr, bog'larida miz. Buvish-e'rlar, aytishlar ham Buxonikiga tez-miz. U kishi qadamjolarni juda-juda

ayamiz bu yil qarshilaydilar. buvimiz «Tong gazetasining bir bizga sovg'a Biz ham o'z

KICHKIN MALIKA BILAN KATTA SUNBAT

Sahifamizning bugungi jajji mehmoni Markaziy Osiyo «MINI MISS»i Xadichaxon IMOMNA-ZAROVAdir.

U 2000-yil, 25-mayda Toshkent shahrida tug'ilgan. Hamza tumanidagi 7-sonli musiqa maktabining 1-sinfini tamomladi. Maktabga hali chiqmagan.

Xobbisi: rasm chizish va taqlid qilish.

–Xadichaxon, avvalambor sizni Qirg'izistonda o'tkazilgan «Mini miss va mini mister» markaziy Osiyo bolalar ijodiyot festivalida «Gran-Pri» sovrindori bo'lganingiz bilan muborakbod etamiz. Ushbu tanlov taassurotlari bilan o'rtoqlashsangiz.

–Bunday tanlovda avval ham qatnashganligim uchun unchalik hayajonlanmadim. Chunki o'tgan yili «Zarafshon» kinokonsert zalida o'tkazilgan O'zbekiston «Mini miss va mini mister» tanlovida 1-o'rinni olgan edim.

Tanlovda 5 ta mamlakat: O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya va Xitoydan kelgan 23 nomzod qatnashdi. O'zbekistondan men, Olya Korotkix (17 yosh) va Anna Golstyan (12 yosh) qatnashdik.

Uzoq tayyorgarliklardan so'ng tanlov boshlandi. Hamma hayajonda edi. Tadbir so'nggida hamma taqdirlandi. Faqatgina men qoldim. Shunda dugonam Olya: «Xadicha, sen g'olib bo'lding», dedi. Quvon-ganimdan yig'lab yubordim. So'ng, menga AQSHdan olib kelingan «Sindrella» deb nomlanuvchi toj kiydirishdi. Ammo toj juda og'ir ekan-da (kulib)!

–Tanlov qanday shartlar asosida bo'ldi?

–Tanlov 4 ta shartdan iborat edi. Birinchi sharti:

tanishtiruv bo'ldi. Unda hamma o'zining milliy libosini kiyib, vatani haqida gapirib berdi. Ikkinchi sharti: iqtidor deb nomlandi. O'shanda «Do'ppi tikdim» qo'shig'imni jonli ijro etgandim. Uchinchi sharti: parodiya bo'lib, sevimli xonandam Maykl Jeksonga taqlid qildim. To'rtinchi sharti: avangard kiyim deb nomlandi. Men «Xumo – baxt qushi» deb ataluvchi libosimni namoyish etdim. U to'vus patlari bilan bezatilgan edi.

–Xadichaxon, ilk bor sahnaga chiqqaningizni eslay olasizmi?

–Ilk bor uch yoshimda sahnaga chiqqanman. Qo'shiqchi Rayhon «Do'ppi tikdim» qo'shig'ini aytayotgan vaqtda men do'ppi olib chiqqanman. Shundan beri men «Do'ppi tikdim» qo'shig'ini ijro eta boshladim.

–Ayting-chi, qanday sozni chalishni o'rganmoqdasiz?

–O'zbek milliy musiqa asboblari bilan bo'lmish chang chalishni o'rganmoqdaman. Menga changning ovozi juda yoqadi. Hozirda orkestr bilan chang chalmoqdaman. Orkestrda eng kichkina sozanda ekanligim meni juda quvontiradi.

–Ustozlaringiz kim?

–Mening birinchi ustozim – men o'qiyotgan musiqa maktabida direktor muovini bo'lib ishlaydigan oyijonim Mavjuda Imomnazarova bo'ladilar. Ustozim Gulchehra Shermatova esa menga chang sirlaridan saboq beradilar.



«A'lo» guruhining avvalgi eks solistkasi Elina esa xoreografim bo'lib, ular menga raqs tushishni o'rgatadilar.

–Ayting-chi Xadichaxon, katta bo'lganingizda kim bo'lmoqchisiz?

–San'atni, qo'shiqni juda yaxshi ko'rsam ham, ammo shifokor bo'lmoqchiman.

–Xadichaxon, kichkina bo'la turib katta muvaffaqiyatlarga erishib kelyapsiz. Yana qanday tanlovlarda qatnashgansiz?

–«O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq

bayramida «Tomoshabinlar yoqimtoyi» nominatsiyasini olganman, 2005-yili O'zbekiston «Mini miss»i, 2006-yilgi «Ona diyor ohanglari» tanlovida 1-o'rin g'olibi, 30-kanaldagi «Do-mi-sol» telehousing final g'olibi va Qirg'izistondagi muvaffaqiyatim men erishgan yutuqlardir.

–Orzuangiz...

–Sevimli xonandam Maykl Jekson bilan uchrashish. Bu mening yagona va eng katta orzuim.

Suhbatimiz so'nggida tahririyatimizning jajji maftunkor mehmoni Xadichaxon iltimosimizni inkor qilmay, sevimli «Kapalak» qo'shig'ini ijro etib berdi va gazetamiz muxlislariga o'zining samimiy tilaklarini bildirdi:

–Barcha bolalar onalarining bag'rida bo'lishsin, aytganini qilib, xursand qilib yurishsin.

Mastura TOSHPOLATOVA suhbatlashdi.

Tahririyatimizga qo'lida bir dasta rasmlar ko'tarib, bolakay kirib keldi. Uning ko'zlari kulib turardi. Yuzidagi bolalarcha samimiyati, soddaligi tabiiy edi.

–Assalomu alaykum, mumkinmi?

–Vaalaykum assalom. Keling bolajon, kim kerak? – unga savol nazari bilan qaradim.

Hayajonlanganidan qo'lidagi chizilgan suratlar tushib ketay dedi.

–Men, Muhriddin To'xtarboyev, Andijonning Bo'ston qishlog'idanman. 13-maktabning 9-sinfini bitirdim. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi qoshidagi Respublika rassomchilik kollejiga hujjatlarimni topshirdim. Chizgan rasmlarimni olib keluvdim, ko'rib berasizmi?

–Rassomchilikning qaysi yo'nalishiga qiziqasiz?

–Ko'proq miniatura va rang-tasvirga. Navoiy asarlaridan ta'sirlanib, miniaturada o'zimni sinaganman. Rang-tasvir va portretlarda esa yurtimiz kishilarining ichki dunyosini tasvirlashga harakat qilaman.

Jahon chempionlari Muhammadqodir Abdul-layev va Iroda To'laganovlar aks ettirilgan suratlar diqqatimni tortdi. Rasmlarni qo'linga olishim bilan:

–2005-yili Respublikada o'tkazilgan «Sport – tinchlik elchisi» mavzusidagi ko'rgazmada ana shu rasmlarim bilan ishtirok etib, «Faxriy yorliq» va qimmatbaho sovg'alar olganman. Shu yili «O'zbekiston kelajagi mening tasavvurimda» viloyat ko'rgazmasida 2-o'rinni oldim. Unda «Xalqlar do'stligi» rasmim bilan ishtirok etdim. Bunda ham «Faxriy yorliq» va qimmatbaho sovg'alar berishgan.

–Xalqimizda «Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar» degan gap bor...

–Yo'g'-e. Mening ustozim bor, – mehr, quvonch bilan gapida davom etdi. –Avvalambor, mening birinchi ustozim ham, tanqidchim ham ota-onam. Yana tumanimizdagi «O'quvchilar ijodiyot

Mustaqillik tengdoshi



O'ZIGA ISHONGAN BOLA

markazi»dagi Salommirza Madrahimov, Muharram Dolimova, G'ayrat O'rmonov, Sherali Turg'unov, Ergashali Hurmatov kabi ustozlarim menga juda ko'p yordam bermoqda.

–«O'quvchilar ijodiyot markazi» a'zosimisiz?

–Ha, faxriy o'quvchisiman. Markaz orqali tez-tez shahri azimga ko'rgazmalarda ishtirok etgani kelib turamiz. O'tgan yili ham Toshkentga ko'rgazmalarni tomosha qilgani kelganimizda, Mustaqillikning

sharofati bilan yo'llardagi o'zgarishlarni, bunyodkorliklarni ko'rib ta'sirlandim va «Qamchiq dovoni» degan asar yaratdim. Uni O'IM direktori E.Sobirovga sovg'a qilgandim. Hali-hanuz xonalarida turadi.

–Kimlarning asarlariga qiziqasiz?

–Leonardo da Vinchi, Rembrat, Repin, Chingiz Ahmarov, Rahim Ahmedov, O'rol Tansiqboyev, Bahodir Jalolov, Temurg'olib Jamoliddinov asarlarini jon dilim bilan tomosha qilaman. Ularga o'xshagim keladi.

–Imtihonga tayyorgarlik qanday?

–Men o'zimga, bilimimga juda ishonaman. Axir odam o'ziga ishon-sagina orzulari ro'yobga chiqadi-ku.

Men Muhriddinning qat'iyatiga qoyil qoldim.

Orzularingga erishgin, bolajon!

Gavhar KARIMOVA suhbatlashdi.



–Ustozimiz Umida Hojimatova sinfimizdagi birona o'quvchini urishib, dilini og'ritmaydilar. Kamchiliklarimizni muloyimlik bilan tushuntiradilar. Nimaga ekanligini bilmadim-u, ularning borligi uchun maktabimizni juda yaxshi ko'raman, - deydi Mirobod tumanidagi 110-maktabning 3-«D» sinf rus guruhi o'quvchisi Boburjon Qo'chqorov.

–O'g'il bola – mard bola, deganlari nima ekan-a, Boburjon?

–Qiz bolalarni hurmat qiladigan do'stlari ishonib sirlarini aytsa sotmaydigan, yolg'on gapirmaydigan bolalarni mard bolalar, deyishadi.

–Ko'pincha maktabdan qaytayotgan uchta o'rtoqning bittasi ortiqchamikin, bilmadim, yonidagi ikki do'sti ikki tarafdan hamisha turtkilayverishadi.

–Gapingiz to'g'ri, ko'pincha biz ham darslardan qaytayotganimizda tortishib qolsak, fikri bo'shroq uchinchi o'rtoq'imizni turtkilashga tushamiz. Bunga uning o'zi ham aybdor. Agar yaxshi o'qib, o'z ustida ko'proq ishlaganida, uning fikriga qolganlar quloq tutardi. Lekin bizning turtkilashimiz albatta beg'araz va do'stona. Bunday holatda o'rtoqlarim Ismoil ham, Renat yoki Akbar ham xafa bo'lishmaydi. Aksincha, bilmaganlarimizni bir-birimizdan so'rab o'rganamiz. Shuningdek, Madina, Ruxshona, Mushtariy, Adiba kabi do'stlarimni ismlarini ham albatta yozing. Chunki ular odobli, yaxshi qizlar.

–Ta'tilda buvijoningiz Muharram ayaning yonidan jilmabsiz...

Ta'til qanday o'tyapti?

–Ha, ularni juda yaxshi ko'raman. Bilasizmi, buvijonim yashaydigan joylar tog'oldi bo'lgani uchun havosi juda toza. Soylarda tiniq suvlar sharqirab oqib yotibdi. Mazza qilib cho'mildim. Jahongir, Javohirlar bilan shaxmat-shashka o'ynadik. Eng muhimi, buvijonimga barcha uy ishlarida ko'maklashdim. Ular meni olqishlayotganlarida, o'zimni xuddi katta bola



bobomiz to'g'risidagi «Boburnoma» degan kitobni o'qib chiqmoqchiman.

–Mard bola yolg'on gapirmaydi, dedingiz-a? Aytingchi, ta'tilda muzqaymoqni ko'p yedingizmi?

–Muzqaymoq ham yedim, ammo ko'p emas. Buvim menga daraxtlardagi sarxil mevalardan, polizlardagi shirin-shakar qovuntarvuzlardan ko'proq berdilar. Bularni vitaminlari ko'p ekan.

Ha, bizning qahramonimiz haq gapni aytdi.

MUZQAYMOQ O'RNIGA QOVUN-TARVUZ

bo'lib qolgandek his qildim.

–Maktabga tayyorgarliklar qanday?

–Hech kimga aytmang, ingliz tilidan bittagina «uch» olgan edim, qolgan baholarim «a'lo» va «yaxshi». Maktabga qaytganimda, hech qachon «uch» baho olmaslikka o'z-o'zimga so'z berdim.

–Bobomiz Boburshoh bolaligidanoq mashhur bo'lgan, siz ham ismingizdan faxrlanasizmi?

–Oyijonim bobomiz shoh Bobur haqida menga ko'p kitoblar o'qib berganlar. Hali o'zim katta kitoblarni o'qiy olmasam-da, ulg'ayganimda albatta

Polizlarda yetilib,
Sizni intiq kutaman.
Tilimlab to'g'rayvering,
Bor mazamni tutaman,

–deya g'arq pishib yetilgan qovun-tarvuzlar o'lkamizda o'z mavsumida siz-u bizga qanchalar kuch-quvvat berishini Boburjonning buvisi to'g'ri aytibdilar.

Biz esa durkun va sog'lom o'sayotgan farzandlarimizga doimo kattalarning gapiga quloq tuting, deya istak bildiramiz.

Mohinur HAYDAROVA,
Sobir Rahimov tumanidagi
165-maktabning 8-«G» sinf o'quvchisi.

Ishtan kech qaytgan kunim erta turib, o'g'lim Sarvarni bog'chaga olib borish malol kelardi. Chunki bekatgacha piyoda borish, undan trolleybusga tushish, yana piyoda yurishga to'g'ri kelardi.

Sarvar bir kuni erta bilan barvaqt turdi-da, yuz-qo'llarini yuvib, kechagi olib kelgan shirinliklarim bilan nonushta qildi. Ozginasini yelim xaltachaga ham solib oldi. Keyin tepamga kelib:

–Nima bo'ldi sizga, nega turmayapsiz? Men tayyor bo'ldim-ku, dedi. –Oyijo-o-n, mana buni anu Niluga oldim. Dadasi ketishi bilan yig'isini boshlaydi. Buni bersam, yig'lamaydi.

Men, «mayli, mayli» deb kulimsirab qo'yaqoldim. Qarasa, men turmayapman, kelib do'mboqqina qo'lchalari bilan peshonamni ushladi.

–Iya, oyijon, isitmangiz bor-ku. Kasal bo'lib qoldingizmi? Do'xtirni chaqiraylik, –deb oldimga telefon simini sudrab olib kela boshladi. Shu orada eshik qo'ng'irog'i chalindi.

Telefonni qo'yib, eshikka yugurdi. «Kim?» dedi-yu, javobni ham kutmay, eshikni «sharaq» etib ochdi.

–Oyijonimni boshlari og'riyapti, issiqlari bor, kasal bo'lib qoldilar. Qarang, dori bering, –derdi tinmay eshik oldida turgan opasi Dilafruzga.

–Oldin menga yo'l ber, o'tib olay, dedi kasal bo'lib qolganimdan dovdirab qolgan Dilafruz qizim. Keyin boshimni ushlab, isitmamni

o'zicha o'lchagan bo'ldi. Kerakli dorilardan ichirdi. –Daftarim qolib ketibdi, shunga kelgandim. Yozma ish bo'larkan. Tugashi bilan kelaman. Sarvar bog'chaga bormay, sizga qarab tura qolsin. Kim ham olib borardi, a?

Dilafruz narigi xonadagi

MEHRIBONLARIM

Onalar yozadi



stol ustida turgan kitob, ruchka, allaqanday daftarini oldi-da, soatga qarab-qarab chiqib ketayotib ukasiga tayinladi:

–Ukajon, oyimni javratmay jim o'tirgin. O'yinchoqlaringni narigi uyda o'yna. Oyim uxlasalar, o'zlariga kelib qoladilar. Dori berdim.

Bir ozdan so'ng, qizarib-bo'zarib Gavhar ham kelib qoldi. Dilafruz opasining sinfiga kirib, uni uyga yuborishlarini muallimasidan so'ragan ekan. Qiziq, men kasal bo'lib qolsam, Gavhar «piq-piq» yig'lagancha, uy ishlarini qilaveradi. Bugun ham shunday bo'ldi. Qarasa, uxlab yotibman. Choy qo'ydi, muzlatgichdan ovqat olib isitdi, kosalariga solib stolga qo'ydi, likopchada qolgan ozgina sariyog'ni stolga olib keldi. Ora-chora Sarvarga «ovozingni chiqarma» deb tanbeh ham berib qo'yadi. Ukasi «to'polon qilmayapman» deb to'ng'illaydi.

Kechki ovqat tayyor.

Dilafruz stolga oppoq dasturxon yozdi. Sarvar orqa tarafdagi nonvoyxonadan issiqqina non olib keldi.

Uyga dimog'ni qitiqlovchi non isi taraldi. Dilafruz chiroyli kosalariga sho'rvani suzib, stolga qo'ydi. Keyin mening oyoq-qo'llarimni uqalayotgan Gavhar va Sarvarga «chiqinglar» deb imo qildi.

–Oyijon, siz turmasangiz manam ovqat yemayman, dedi Sarvar, –turaqoling, birga yeylik, qornim ochib ketdi.

Bolalarimning o'tirib tuzukroq ovqatlanishmagani yodimga tushib, sekin-asta o'rnimdan qo'zg'aldim. Stol atrofida hamma jimgina o'tirib, qo'lini taomga cho'zdi. Men esa bolalarimning mehribon bo'lib ulg'ayishayotganlarini ko'rib, ich-ichimdan xotirjam edim.

Gulnora AHMEDOVA.



SHE'RIYATGA SADOQAT BO'LSIN!

Men anchadan buyon she'riyatga kirib, birmuncha nomi tanilgach, yana ji-im bo'lib ketadigan shoirlarni kuzataman. Ular erta so'ngan chaqmoqlarmi, yo'l o'rtasida mayda tashvishlarga ko'milib, hayron qolgan qizg'aldoqlarmi, xullas, dilimni o'rtaydi. Sadoqat menga she'r daftarini ilk bor olib kelganida, unga ham maqsadi yo'lida izlanib intilishiga kuchi yetarmikan deb ishonmayroq qaradim va teran fikri, go'zal tashbehlari e'tiborimni o'ziga tortdi. She'rlari yaxshi. Kelajakda bundan-da chiroyli va mazmunli qalam tebratadi degan umiddaman. Ayting-ayting, yo'li uzun, umriboqiy shoira bo'lsin.

*Hosiyat BOBOMURODOVA,
shoira, O'zbekiston Yozuvchilar
Uyushmasi a'zosi.*

BUVIJONIM

Buvijonim bizlarga,
Ertak aytib beradi.
Qadim-qadim zamonga,
Gap jilovin buradi.

Parilarga qo'shilib,
Samolarga uchaman.
Donishlar bilan birga,
Jumboqlarni yechaman.

Sehrlil so'zlarini,
Maroq bilan tinglayman.
Har bir afsonasidan,
Bitta hikmat anglayman.

Buvim aytgan afsona,
Buvim aytgan ertaklar.
Hamisha hammamizni,
Yaxshilikka yetaklar.

*Sadoqat HAMIDOVA,
Samarqand viloyati, attaqo'rg'on
tumanidagi 9-umumta'lim maktabining
5-sinf o'quvchisi.*

*Ushbu she'rlar O'zbekiston mustaqil bosma
ommaviy axborot vositalari va
axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va
rivojlantirish jamoat fondi ko'magi bilan chop
etilmoqda.*

Maktabdan reportaj

QULOQSIZ BOLA

Siz quloqsiz deysiz meni,
Egri yo'ldan qolmasmishman.
Siz gapirgan so'zni sira,
Qulog'imga olmasmishman.

Oh, ayajon, o'g'ilchangiz,
To'ppa-to'g'ri yuribdi-ku.
Ushlab ko'rdim, quloqlarim,
O'z o'rnida turibdi-ku.



YOZ

Mana, bahor o'tib,
Kirib keldi yoz.
Yoz kuyini tabiat,
Chalar juda soz.

Oltinrang qovunlar,
Quyoshga o'xshar.
Tarvuzlar yer kabi,
Yum-yumaloq shar.

Boshlardan quyilar,
Jala-jala ter.
Quyoshda toblanib,
Yashnar ona yer.

Ta'm bilan rang berar,
Quyosh bog'larga.
Odamlar sayr etar,
So'lim tog'larga.

*Abdullo AHMADOV,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi
53-o'rta maktabning 5- «A» sinf o'quvchisi.*

XIVAM - FAXRIM

Xivam - dilda dostonim,
Xivam - mashhuri jahon.
Xivam - seni ko'rganlar,
Bo'lishar maftun har on.

Ikki qal'a bir shahar,
Ichangal'a, ham Dilshon.
Har qarichi muqaddas,
Obidalar yonma-yon.

Polvonpir maqbarasi,
Poyi doimo gavjum.
Ko'hna Ark, Toshhovlidan,
Mehmon arimas bir zum.

Ikki yuz o'n uch ustun,
Jumamachitni bezar.
Ichkariga kirsan kim,
Bir ilohiy kuch sezar.

Ezgu istak ko'nglida,
Duoga ochadi qo'l.
Yurtga tinchlik, omonlik,
Tilab yana olar yo'l.

Xo'shaminor uzoqdan,
Tovlanadi ko'zlarga.
Xivam faxr, iftixor,
Bag'ishlaydi bizlarga.

*Fazilat MASHARIPOVA,
Xorazm viloyati, Xiva
shahridagi Feruz nomli 10-son
maktabning 10-«A» sinf o'quvchisi.*

Kunlardan bir kun

Turg'un bilan Ilyos hovlida yer chizib o'ynar edilar. Ularning yonlaridan jo'jalari bilan ona tovuq o'tib qoldi. Bir-biridan chiroyli, uch kun oldin tuxumdan chiqqan jo'jalarni qiziqib kuzatdilar.

-Tovuq jo'jalarining nechtaligini bilarmikin-a?-so'radi Ilyos xayoliga kelib qolgan fikrdan quvonib. -O'n ikkita ekan. Sanab ko'rmagan bo'lsa kerak?

-Sanamagan bo'lsa ham sezadi,-dedi Turg'un.

-Sinab ko'rmaymizmi?

-Qanday qilib?

Ilyos tandir tagidagi o'tinxonaga yashirindi. Turg'un ona tovuqni tandir tomonga quvdi.

Tovuq jo'jalarini yoniga olib, vahimali «kvoq-kvoq»lab, tandir oldidan o'tdi. Ilyos eng orqada kelayotgan jo'jani tutib

Ona tovuq buni oldi. Lekin qo'lga tushgan jo'ja ko'rmadi.


Lekin qo'lga tushgan jo'ja «chi-chi»-lavordi. Tovuuq qanotlarini yoyib orqaga keskin burildi, o'tinxona eshigiga keldi.

Shu payt nima uchundir Ilyos o'tinxonadan boshini chiqardi. Tovuuq uning yuziga sakradi. Ilyos voy-voylab jo'jani qo'yib yubordi va burnini changallab tashqariga chiqdi.

-Sanashni bilarkan,-dedi Ilyos burnining uchidan oqayotgan qonni sidirib.

-Yaxshiyamki ko'zingni cho'qimadi,-dedi Turg'un do'stiga achinib.

*Nasimjon MAMADALIYEV,
Namangan viloyati, Uychi tumanidagi
7-maktab o'qituvchisi.*



DUO KETGAN QISHLOQ

Qadim o'tgan zamonda, Koson degan tomonda bir qishloq bo'lgan ekan. U yerning oqsoqolini tanimagan, bilmagan kishi yo'q ekan. Chunki bu saxovatpesha inson qishloqqa masjid-madrasa va karvonsaroy qurdirgan ekan. O'sha karvonsaroydan tushgan mablag'ni kambag'allarga berar ekan.

Uning Osim duo **Bir bor ekan...** Osim degan shogirdi bor ekan. Zehni o'tkir, bilimdon o'qib, buloq chiqarish va olov yoqish qudratiga ega ekan.

Bir kuni savdogarlar karvoni kelib, qo'nishibdi. Shayx ularga joy ko'rsatib, idishlariga shogirdiga buyuribdi. Osim ustozining darrov bajo keltiribdi. Bir duo garlarning meshlariga suv

Uning bu fazilatini dogarlarning fikri o'zgarib kuni ular Osimni o'g'irlab, qochib ketishibdi. Erta holdan xabar topibdi. dining ketidan izlab xotirjam kulib o'tirave-

Karvon uch kunda cho'lning o'rtasiga kelib dogarlar Osimga ishonib, qilib ishlataveribdilar. Suvlari tugab qolibdi. Shunda ular Osimdan suv chiqarib berishini so'rabdilar. Ko'nmagan ekan, rosa kaltaklashibdi. Achchig'langan Osim suv chiqarishga majbur bo'libdi. Chanqagan savdogarlar suvni simirib-simirib icha boshlashibdi. Keyin birin-ketin o'la boshlashibdi. Chunki Osim bir duo bilan suvni zaharlab qo'ygan ekan-da...

Shundan so'ng, Osim tuyalarni yuki bilan qishlog'i tomon haydab ketibdi. Keyin odamlar qishloqni mustahkam devor bilan o'rab olishibdi. Hali-hanuz qishloq ahli farovon, ahil yasharmish. Osim esa qishloq ahlini tashqi xayf-xatardan himoya qilarmish.

Tashqaridagilar ularga havas bilan qarab, bu qishloqqa o'zi duo ketgan deyisharmish.

*Jobir ISMATULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Koson shahri,
Mirzo Ulug'bek nomidagi internat o'quvchisi.*



Азиз болалар, санъатга, адабиётга ошуфта кўнгил пок бўлади, тўғрими? Қардош Қирғизистон Республикасининг Жалолобод вилояти, Олабуқа туманига қарашли Оққўрғон қишлоғидаги Асқарали Юсуфалиев номли 10-ўрта мактабида ҳам адабиётга қизиқувчи, истеъдодли ижодкор тенгдошларингиз таҳсил олишади.

Сиз ҳам уларнинг ижод намуналаридан баҳраманд бўлинг.

ТАНИШИНГ ВА ДЎСТЛАШИНГ.

Хатларингизни кутамиз.



Ботир Рамазонов — 1980-йил, 5-ноябрда туғилган. 1997-йили Ю.Ражабий номли Тошкент музыка билим юртининг суҳандонлик ва хонандалик бўлимига ўқишга кирди.

Ҳозирда Ўзбекистон телерадио-компаниясида шеър ва қўшиқлари билан мухлислар эътиборига тушмоқда.

ЖАЛОЛОБОД

Самоларга бўйлашсан, Жалолобод,
Қай навони куйлашсан, Жалолобод.
Мен билмасман, хаёлимни олган ўзинг,
Юрагимда мангуликка қолган ўзинг.

Қурмонбекдир беш юз ёшли ботир ўғлинг,
Ўғлинг мисол навқиронсан, Жалолобод.
Файзга тўла сокингина кўчаларинг,
Ёғду сочиб нурафшонсан, Жалолобод.

Азал-азал мозийларда буюк номинг,
Ҳеч кўрмагин қайғу нима, нима завол.
Гўзал Ўшкент тоғларидан вужудингга,
Шамол каби соғинч ила елсин хаёл.

Эрта-индин баҳор келар, бағринг тўлар,
Ловиллаган қип-қизил гул, лолаларга.
Азбаройи сайл қизиб борганидан,
Гуллар ўзи эргашир соч толаларга.

Гўзал Наврўз кечар сенда кўп ўзгача,
От-у тойлар дупурлашиб ўтар унда.
Етиб борар овозлари то менгача,
Эзгуликнинг ажиб тонги отар кунда.

Жалолобод, жонга ором бергувчи бу-
Кучоғингда неча кунлаб қолиб кетдим.
Оз муддатда бўлсам-да, лек ўзим билан,
Бир оламча таассуротлар олиб кетдим.

ЯХШИЛАР

Яхшиларни яхши кўраман,
Тинмай улар ҳолин сўраман.
Яхши уйнинг камолин кўрган,
Оддий йигит Ботир тўраман.

Тушунмайман баъзан дилимни,
Ўз-ўзимни қийнаб нетаман?
Яхшиларга ошно бўлай деб,
Барига қўл силтаб кетаман!

Хаёлларим улар томонга,
Билдирмайин қочиб кетади.
Негаки бир ширин сўзлари,
Ҳади дилга нур сочиб кетади.

Ахир айтинг самимий сўзни,
Чин дилидан ким қилар изҳор?
Неча бемор, не-не дардкаш ҳам,
Арзимас бир ширин сўзга зор.

Бўлсам эди агар шифокор,
Ширин сўз-ла даволар эдим.
Забоним-ла хасталикларни,
Осмонларга ҳаволар эдим.

Ана шунда яхшилар каби,
Мен ҳақиқий яхши бўлардим.
Бир оғиз сўз кор қилди дея,
Қувончлардан кучга тўлардим.

Кўнгилларга шодликлар солган,
Яхши одам ахир яхши-да!
Борлиғидан кечиб ўзини,
Эзгу йўлга қилар бахшида.

Биродар, мен назарда тутган,
Инсонлардек хўп яхши бўлинг.
Бу оламда ҳар она кутган,
Одамларнинг гул нақши бўлинг.

ОРЗУЛИ ЙЎЛЛАР

(Раёно опамга бағишлайман)
Косонсойнинг сойларида оқди дилим,
Бир соғинчнинг оташ бағрин ёқди дилим.
Дилим оқса сойлар каби тўлиб-тошиб,
Наманганга қайта-қайта тушар йўлим.

Унда опам фарзандлар-ла яшайверар,
Қизларининг кокилларин тарайверар.
Эрта-индин келиб қолармикан, дея,
Онагинам йўлларида қарайверар.

Ҳар гал қайтсам олтин водий қўйнига мен,
Маржон таққим келар опам бўйнига мен.
Келсам дейман бир кун улуғ инсон бўлиб,
Хизмат учун жиянларим тўйига мен.



Эзгуликлар уйдирган,
Мен учун жон куйдирган.
Ким десангиз у бўлар,
Келинойим Нилуфар.

Хизматда ҳеч толмайди,
Ёмонлик не билмайди.
Бувим дуосин олар,
Келинойим Нилуфар.

КЕЛИНОЙИМ НИЛУФАР

Мактабда устоз улар,
Ёшларга таълим берар.
Мақтовлар, олқиш олар,
Келинойим Нилуфар.

Шеър ёзсам ижодимни,
Ўнглаб йўғ-у боримни.
Рағбатлаб кўнглим олар,
Келинойим Нилуфар.

Қўлладингиз ўзимни,
Тингланг менинг сўзимни.
Оллоҳ сизни мададлар,
Келинойим Нилуфар.

Чунки сиз дилгир аёл,
Топганингиз чин ҳалол.
Ёр бўлсин омад, зафар,
Келинойим Нилуфар.

Зоҳиджон БОТИРОВ.



Бобурбек Асронқулов — 1996-йил, 9-майда туғилган. 10-мактабнинг 4-синф ўқувчиси бўлган Бобурбек расм чизишга қизиқади. У ўз мавзуларини она табиат бағридан излайди. Кушлар, гуллар ҳамда эртақ қаҳрамонлари ҳақидаги расмларини томоша қилсангиз, ўша манзаралар кўз ўнгингизда гавдаланади.



ҚИЗИМ РАЙҲОНАГА

Асалим, дилбандим, янги меҳмоним,
Кўзин очиб боқди ёруғ дунёга.
Боши узра кўрди азиз онасин,
Кулиб қўйди аста очиб кўзларин.

Момиққина кўлчасин кўйиб бағримга,
Аста катта бўлди қизим Райҳона.
Дўбоққина юзларин тутиб юзимга,
Уч ёшга ҳам тўлди менга ҳамхона.

Овунчоғим менинг, шодлигим менинг,
Кўзmunчоғим менинг, шириним менинг.
Эркатойим менинг, ишончим менинг,
Кўзимнинг оқ-қораси Райҳонам менинг.

Улғайиб кундан-кун бўлди қизалоқ,
Гоҳ кулиб, гоҳ йиғлаб кўз ёши мунчоқ.
Оллоҳимдан умр тиладим узоқ,
Бахтимга доимо соғ бўлсин мунчоқ.

Авалло қизимга умр тилайман,
Ва кейин шоҳона ҳузур тилайман.
Тўйи кун олтин, тиллолар эмас,
Қизимга бебаҳо бахтни тилайман.
Наргиза ХАМИДОВА.



PODSHOH SINOVI

(Davomi. Bosh o'tgan sonlarda).

-Buvi, hov buvi-i-i!
 -Nima deysan?
 -Endi molboqar qilganini ayting.
 -Ha-ya, buyam esing-da ekan-da. Meni esimdan chiqib qolgandi. O'zing aytib ber.
 -Bir podshoh bor ekan. Uni vaziri yo'q ekan.
 -Yana molboqari ham.
 -Molboqar nima, buvi?
 -Mollarni, sigir-buzoqlarni parvarish qiladiganlar. Ulardan doim molxonaning hidi kelib turadi. Shuning uchun ham Hoji buving sigir sog'ishga kirganlarida, ro'mollaridan tortib oyoq kiyimlarigacha hammasini o'zgartirib olardilar.
 -Xo'sh, innay keyinchi?
 Buvim menga kulib qaraydilar. Men «innay keyin» deb yana molboqarga qaytaman.
 -Podshohni molboqari ham yo'q ekan. Buvi, u yog'ini o'zingiz aytib bering. Siz chiroyli qilib aytasiz.
 -O'zing ham yaxshi aytyapsan-ku. Birpas gapirmay men ham seni eshitib boray.
 -Mayli-i.
 Men jim ketaman. Buvim «aytmaysanmi», deyaverganlaridan keyin ko'zim pishay deb turgan baland so'ridagi uzumlarga tushadi-da: «Buvi, tuzukmisiz?», deyman.
 -Tuzukman.
 -Uzum yeysizmi?
 -Rahmat, ertalab uyg'onishimga olib kelib, tuzukmisiz, deb berding-ku! Onang juda aqli-da! Senga bu so'zni Elmira o'rgatdi, a?
 -Ha, har kuni buvijoningni o'pib, «tuzukmisiz», deb uyg'otgin. Yuzingni yuvib, ovozingni baland qilib «assalomu alaykum», degin deydilar.
 -Baraka topsin. Yaxshi gaplar o'rgatish kerak. Yomon gaplarni gapirma.
 -Xo'p.



Umida ABDUAZIMOVA.

-Xo'p deysan-u, uyat gaplar ham og'zingdan chiqadigan bo'lib qoldi.

-Bor, yo'q-ol, deganimmi?

-Yana boshqachasi bor.

Men darrov yuzimni burib oldim.

Bolalar bilan o'ynayotganimda bitta ada meni achomlab, «seni kim tuqqan», dedi. Men, onam, desam, he, o'sha onangni... deb so'kdi. Keyin menga ham shunaqa so'kishni o'rgatdi. Men hamma bolalarni shunaqa so'z bilan so'ksam, ular kulishdi. O'shanga siz ham kulasiz deb o'ylabman.

-Endi og'zingga unaqa so'zlarni olma. Qani, borib bir chayib tashla-chi, derdim-ku, bu yerda suv yo'q ekan. Hali Hoji buvingnikiga borganda og'zingni yuvib olish esingdan chiqmasin.

-Xo'-o'p.

Biz yana jim keta boshladik. Birdan bitta uyan

buzoqning «mo'-o'»lagani eshitildi-yu, esimga o'sha podshoh tushdi.

-Buvi, nega so'ramayapsiz?

-Nimani?

-Podshohni.

-Ha-ya, keyin nima bo'libdi?

-Podshoh bitta kishini vazir qilaman deb yurgan ekan. Uni sinash uchun mehmon qilibdi.

-Dalada.

-Ha, katta dalada. Ular yo'lda ketishayotgan ekan. U kishi xursand bo'lib, podshoh bergan ovqatlarni apil-tapil yeb olibdi. Buni ko'rgan shoh uni darrov molboqar qilib qo'yibdi.

-Nimaga?

-Nimaga bo'lardi? U qo'lini yuvmay, atrofini chiroyli qilmay, molga o'xshab ovqatlangan ekan-da!

Molboqarni esa vazir qilibdi.

-Nimaga?

-Nimaga bo'lardi? Molboqar ham podshohga mehmon bo'lib, avval «rahmat», debdi. Keyin yuz-qo'lini yuvib, dasturxon tuzab, ovqatga qo'l cho'zibdi. Qovunlarni kesib, pomidorlarni to'g'rab, bitta-bittalab odamga o'xshab og'ziga solibdi.

-Odamga o'xshab degin? Men bunaqa demagandim-ku!

-Opam deganlar. Doim odamga o'xshab uxla, odamga o'xshab gapir...

-Ha, odamcha, nimalar deb chuldirayapsan?

Aborning oyisi orqamdan kelib, burnimni chimchilab oldi. Men uni «mashak» dedim.

-O'zing mashak.

-Sariq mashak.

-Sariq mashak...

Buvim yelkamni ushlab opoqiga qaratdi.

-Nega o'zingdan kattani sensirayapsan. Sizlab gapir. Qani, kechiring degin.

Men darrov «kechiring» dedim. Opoqim esa burnimni yana chimchilab oldi-da, «sariq mash-shak» dedi va buvinga:

-Biz o'zi shunaqa o'ynaymiz. To'g'rimi, Abdumajid, - dedilar.

-To'g'ri.

Buvim yana opoqi bilan gaplashib bo'lgunlaricha, men sizlarga nega «sariq mashak» ekanligimni aytib beraman.



(Davomi bor).

«FERUZA» DARAXTI

Voy, «Feruz» degan daraxt ham bor ekanmi, deb o'ylayotgandirsiz? Ha, bor ekan. Bo'lib o'tgan voqea go'yo ertakka o'xshaydi. Turkmaniston Respublikasi Ashxobod shahri yaqinida afsonaviy bir ulkan daraxt bor ekan. U hozir ziyoratgohga aylangan. Bular haqida menga ashxobodlik Saidamamajonim aytib

-Bir zamonlar Feruza bo'lgan ekan. Uning onasidan erta ayrilishgan bilan jang qilishga qilingani sababli, urushga o'tlanishibdi. tomonidagilar ayollarni ham o'g'irlab, bir tepalikka da, ustidan toshlar terib yum yig'labdi. Har bir unib chiqqanmish. Urush bo'lib o'tgan voqeadan voqif ham asrab-avaylay olmadik, ota-onamizga bergan va'damizning ustidan chiqmadik», deb rosa kuyunishibdi-da, o'sha tepalikka borib, toshlarni quchgan holda o'zlarining jonlariga qasd qilishgan ekan. O'shanda tosh uyumi atrofida yettita nihol o'sibdi. Zamonlar oshib, yetti daraxt jipslashib, ulkan daraxtga aylangan. Ziyoratgoh tepasiga «Feryuza bog'i» deb yozib qo'yishgan. Shu yerga kelib ziyoratchilar nimani niyat qilishsa, o'sha orzu albatta ijobat bo'larkan.



berganlar: degan go'zal pari qiz yetti nafar akasi bo'lib, ota-ekan. O'shanda yog'iy barcha yigitlar badarg'a Feruzaning akalari ham Shunda qasdlashgan dushman o'g'irlab keta boshlabdi. Feruzani olib borib, tiriklayin ko'mishibdi-tashlashibdi. Bechora qiz yumtomchi ko'z yoshlaridan maysalar tugab, yetti og'a-ini uyiga qaytib, bo'lishibdi. «Birgina singlimizni Shunda qasdlashgan dushman o'g'irlab keta boshlabdi. Feruzani olib borib, tiriklayin ko'mishibdi-tashlashibdi. Bechora qiz yumtomchi ko'z yoshlaridan maysalar tugab, yetti og'a-ini uyiga qaytib, bo'lishibdi. «Birgina singlimizni


G'aroyibot

ASROVCHI FARISHTA

Muharram xolam bir voqeani gapirib berganlarida, albatta uni gazetaga yozib yuboraman, degandim. Chunki u biz o'quvchilar uchun ibrat bo'ladi.

Har bir insonning

asrovchi farishtasi bo'ladi, deb eshitgandim kattalardan. Rost gap ekan. To'g'risini aytсам, o'zimdanda ham o'tdi. Yo'l harakati xavfsizligi qoidasiga rioya qilmadim-da. Bekatda to'xtagan avtobusdan tushdim-u, yugurib yo'lni kesib o'tmoqchi bo'ldim. Yo'lda qattiq tormoz berib to'xtab ulgurdi. Keyin haydovchisi meni rosa urishgan. Mening xatoim: hech qachon avtobusning oldidan yo'lni kesib o'tmaslik kerakligini bilib turib yugurib ketganim va yo'lga qaramaganim bo'ldi. O'shanda agar bir-ikki soniya kechroq yo'ldan o'tganimda, mashina albatta urib ketgan bo'lardi. O'shanda asrovchi farishtalar borligiga ishonchim tangriga shukr qildim.



kelayotgan «Moskvich» mashinasi

keyin haydovchisi meni rosa urishgan.

Mening xatoim: hech qachon avtobusning oldidan yo'lni kesib o'tmaslik

kerakligini bilib turib yugurib ketganim va yo'lga qaramaganim bo'ldi.

O'shanda agar bir-ikki soniya kechroq yo'ldan o'tganimda, mashina albatta

urib ketgan bo'lardi. O'shanda asrovchi farishtalar borligiga ishonchim

tangriga shukr qildim.

Abdullo HAMIDULLAYEV,

Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumanidagi 46-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

–Yo'ldosh aka, bola tarbiyasi uchun musiqaning ta'siri bormi?

–Albatta bor. Mening farzandlarim va nabiralarim ham bugungi yoshlar qatori estradaga ruju qo'ygan.

Men esa, yoshlarning bunday qo'shiqlarga yopishib olishi «yalpi kasallik» o'xshaydi deyman. Ba'zi estrada xonanalari o'zlari tushunib-tushunmay ajabtovur «kuylayapti»ki, qo'shiq matnidan uyalib ketasan odam. Axir, bobolarimiz aqli zaiflarni qo'shiq bilan davolashgan. Asabi buzilganlarga mumtoz kuylarni qo'yib berishgan.

Farobiy bobomizning ta'kidlashicha

yaxshi musiqa,

yaxshi qo'shiq

ruhga kuch beradi.

– **A s l i d a**

o'z i n g i z

r u x s a t n o m a

beradigan estrada qo'shiqlaridan ko'nglingiz to'lmashini ta'kidlayapsiz chog'i?

–To'g'ri, ta'na aralash aytgan gapingizda jon bor. Bizdan qaytgan qo'shiqlar nodavlat, xususi radio-kannallari orqali baribir baralla yangrayapti.

Biz qo'shiqlarni qabul qilayotganimizda avvalo matnning mazmuni, dorligiga, qolaversa, musiqasining milliyatiga katta e'tibor beramiz.

–Musiqaning milliyatiga e'tibor beramiz, deyapsiz. Afsuski, bugungi musi-

Qo'shiq tarbiya maktabi

qamizning 90 foizi chet eldan o'g'irlangan, bunga nima deysiz?!

–Biz ham shunga hayronmiz-da! Ba'zida konsert zallarida ruxsatdan o'tmagan qo'shiqlar ham kuylashyapti.

Menimcha, bu kamchiliklarga ma'lum ma'noda o'sha konsert dasturining rahbarlari ham javob bersa to'g'ri bo'lardi.

Qo'shiq uch ijodkorning ijodiy mahsuli. Bular qo'shiqchi, bastakor va shoir.

So'zni tushunmay, uni kuyga solib aytishyapti.

«Hamma pul san'atkorda», degan gapga ishonishadi-da, oqibatini ko'rib turibsiz... Yana bir gap: bugungi kunda palapartish qo'shiqlar ko'payishiga ma'lum ma'noda tinglovchi ham aybdor.

–**Til millatning qiyofasini belgilaydi.**

Ammo o'zi o'zbek bo'lgani holda mutlaqo o'zbek tilini bilmay turib, tilning ustidan kulgandek qo'shiq aytishlariga nima deysiz?

–Albatta, har bir millatda o'z olimi, o'z shoiri, o'z qo'shiqchisi bilan faxrlanish tuyg'usi bor. Bizning o'zbek qo'shiqchiligidamizda ham faxrlansak arziydigan katta iste'dodlar bor.

San'atsevar bolalarga esa, bu yo'lga kirish uchun avvalo maqomlarni, mumtoz qo'shiqchiligidamizni mukammal o'rganing, degim keladi. Zero, mukammallikda boqiylik bor.

Xurshida BOYMIRZAYEVA.



Aziz bolajonlar! Siz qanday qo'shiqlar tinglab, o'zingiz ham ularni yodlab, xirgoyi qilib yuribsiz?

Aytmasangiz ham bilamiz, ular «Biz ko'chaning bolasimiz, ko'cha bizning onamiz», «Balandda-pastda, hayot achiganda», «Yuragingda soya bormi?» kabi jumlar bor. Keyingi yillarda radio va oynayi jahon to'liqlarida takror-takror aytilayotgan bu qushtirnoq ichidagi qo'shiqlar sizgagina emas, biz kattalarga ham yod bo'lib boryapti. To'g'ri, biz ulardan g'ijinib, ma'naviyatingizga salbiy ta'sir qiladigan bu jumladan sizlarni muhofaza qilgimiz keladi. Ammo sizlar hali g'o'rsiz. Bunday qo'shiqlar didsizlikka yetaklashini to'laligicha anglolmaysiz. Biz esa... ana shulardan qayg'urib, «O'zbeknavo» estrada Birlashmasi bosh direktor o'rinbosari Yo'ldosh aka Norbo'tayevga murojaat qildik.




YULDUZ KO'PAYGAN

Belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida raqam atrofiga: 1. Shartli ravishda qabul qilingan, belgi, ishora.

2. Sudda ma'lum vakolat sifatida tomonlardan birining huquqini himoya qiluvchi, huquq masalalari yuzasidan maslahat beruvchi mutaxassis. 3. Eng birinchi inson. 4. O'zbek tarixchi olimi, «Amir Temur» romani muallifi. 5. Shveysariyadagi yirik shahar. 6. Koinotda ro'y beradigan turfarang hodisa. 7. Turkmanistonda qadimdan mavjud bo'lgan ko'rkam, chopqir ot zoti. 8. Doira shaklidagi devoriy surat. 9. Cholg'u asbobining eng past va eng yuqori tovushlari o'rtasidagi barcha tovushlar majmui. 10. Sharning ko'ndalang o'lchami. 11. Ma'nodosh so'zlar. 12. Qoloqlikdan yuksaklikka intilish, bunyod etish. 13. Dunyodagi eng yirik sersuv daryo. 14. Janubiy Amerikaning tropik hududlarida tarqalgan yirik bo'g'ma ilon. 15. Davlatning markaziy shahri. 16. Yigirma sakkiz soqqa bilan o'ynaladigan ko'ngilochar o'yin. 17. Yuridik hujjatlarni asl hujjatlariga muvofiq tasdiqlovchi lavozimli shaxs. 18. Moy, krem ishlab chiqarish ashyosi, mumsimon tog' ma'dani. 19. O'zbek xalq raqs kuyi. 20. Go'zallik, chiroy. 21. Alisher Navoiy zamondoshi, fors-tojik mumtoz qasidanavis shoiri. 22. Qadimda usti g'isht bilan gumbaz shaklida berkitilgan sun'iy hovuz. 23. Pokistondagi shahar, ma'muriy markaz. 24. Yoqilg'i, neft mahsuloti. 25. Qurilmaning havo, suv, bug' yo'lini ochib, yopib turuvchi qismi.

Tuzuvchi: Foziljon O'RIPOV.

Aylanma krossvord



TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,

Dilbar OLIMJONOVA,

Botir UBAYDULLAYEV,

Jabbor RAZZOQOV,

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Feruza JALILOVA

(bosh muharrir o'rinbosari)

Sobirjon SHARIPOV,

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston

Matbuot va axborot

agentligida

022-raqam bilan

2003-yil 11-dekabrda

ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa

ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa

ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va

chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 17626

Buyurtma N: J 2680

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin

SHAYADGAROV

Navbatchi:

Gulnora

AHMEDOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45